

QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOLALARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TAMOIYILLARI

Seitmuratova Venera Jumamuratovna

TAFU "Maktabgacha ta'lim metodikasi"

kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda qoraqalpoq xalq ertaklarining bolalar ijodiy tafakkurini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Ertaklarning mazmuni, ularning tarbiyaviy va estetik ahamiyati, shuningdek, bolalarda tasavvur, obrazli fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Xalq ertaklari orqali milliy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va hayotiy saboqlarni singdirish imkoniyati haqida fikr yuritiladi. Ta'lim jarayonida ertaklardan foydalanish metodikasi va ularning ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq xalq ertaklari, ijodiy tafakkur, bolalar rivojlanishi, obrazli fikrlash, milliy qadriyatlar, og'zaki ijod, ta'limda ertaklar, tarbiyaviy ahamiyat.

Bolalar tafakkurini rivojlantirish — zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon bolaning shaxs sifatida shakllanishi, atrof-muhitni anglash qobiliyati, hayotga mustaqil va ongli yondashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Tafakkurning ayniqsa ijodiy shakli bolalarning shaxsiy rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. Chunki ijodiy tafakkur — bu har qanday axborotni o'zlashtirish emas, balki uni yangicha talqin qilish, mustaqil qarash bildirish va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatidir.

Shu ma'noda, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun eng tabiiy va ta'sirchan vositalardan biri bu — xalq og'zaki ijodidir. Xalq ertaklari — ming yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini o'zida

mujassam etgan badiiy-tarbiyaviy manba hisoblanadi. Ayniqsa, har bir millatning o'ziga xos ertaklari, jumladan, qoraqalpoq xalq ertaklari, bolalar tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Qoraqalpoq xalq ertaklari mazmuni, obrazlar tizimi, kompozitsion tuzilishi va badiiy ifoda vositalari orqali bolalarda estetik dunyoqarashni, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini va obrazli fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu ertaklarda ko'pincha qahramonlarning jasorati, adolatparvarligi, mehnatsevarligi, zukkoligi kabi fazilatlar ilgari suriladi. Bunday xarakterlar bola ongida ijobiy timsollar sifatida shakllanib, ularni hayotga ijobiy munosabatda bo'lishga undaydi.

Shuningdek, ertaklardagi fantastik voqealar, g'ayritabiiy hodisalar, ramziy obrazlar bolaning tasavvur olamini boyitadi, ularni noodatiy tafakkurga, badiiy-assotsiativ fikrlashga undaydi. Qoraqalpoq ertaklarida uchraydigan milliy obrazlar — masalan, aqlli chol, dono ayol, ayyor tulki yoki kuchli yigit — bolani hayotiy voqealar haqida chuqur mulohaza yuritishga, muammolarga echim topishga, o'z nuqtai nazarini shakllantirishga yordam beradi.

Natijada, xalq ertaklari, ayniqsa qoraqalpoq xalq ertaklari orqali bola o'zining ijodiy salohiyatini kashf etadi, nutqiy faoliyati rivojlanadi, obrazli fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish va estetik baholash ko'nikmalari shakllanadi. Shuning uchun bu madaniy meros ta'lim-tarbiya jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida qadrlanishi zarur.

Qoraqalpoq xalq ertaklarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular hayotiy voqealarni bevosita emas, balki obrazli, ramziy ifodalar orqali tasvirlaydi. Bu holat bolaning estetik qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, uning tasavvur doirasini kengaytiradi. Bunday ertaklarda uchraydigan g'ayritabiiy hodisalar, fantastik personajlar (masalan, sehrgarlar, ajdarlar, hayvonlar tilida gaplashadigan qahramonlar) bolaning abstrakt va badiiy-assotsiativ tafakkurini faollashtiradi.

Qoraqalpoq ertaklari o'z tuzilishi jihatidan klassik ertak kompozitsiyasiga mos bo'lib, voqealar dramatik chiziqda rivojlanadi va odatda ezgulikning g'alabasi

bilan yakunlanadi. Bu orqali bola hayotiy voqealarni yaxshilik-yomonlik, adolat-zulm, mehnat-xo'rlik mezonlari orqali baholashni o'rganadi. Masalan, "Dev bilan bola", "Ovchi chol", "Ikki do'st" kabi ertaklar orqali bolalar odob-axloq normalarini, ijtimoiy tenglik g'oyasini, jasorat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni anglab yetadilar. Ertaklar bolaning dunyoqarashi va hayotga nisbatan munosabatini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xalq ertaklari avvalo tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ular bolalarning axloqiy, ijtimoiy va madaniy ongini shakllantirishda vosita sifatida ishlatiladi. Qoraqalpoq xalq ertaklari milliy mentalitet va tarixiy tajriba asosida yaratilgan bo'lib, ular orqali bola o'z xalqining qadriyatlari, urf-odatlarini, madaniy merosi bilan tanishadi.

Ertaklarda aks etgan timsollar — dono chol, adolatli podsho, ayyor tulki, kuchli yigit kabi obrazlar orqali bolaga hayotiy saboqlar beriladi. Ushbu obrazlar bolaning ongida ijobiy yoki salbiy namunalar sifatida shakllanadi va ularni muayyan voqealarga nisbatan baho berishga, ongli xulosa chiqarishga undaydi. Bundan tashqari, ertaklardagi konfliktli vaziyatlar, qahramonlarning tanlov oldidagi holatlari bola tafakkurida sabab-oqibat munosabatlarini anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaranganda, xalq ertaklari ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda didaktik material sifatida yuqori salohiyatga ega. Qoraqalpoq xalq ertaklarini samarali o'qitish va ulardan foydalanish uchun quyidagi metodik tamoyillar muhim hisoblanadi:

Dramatizatsiya — ertakni sahnalashtirish orqali bolalarda rol o'yin faoliyati orqali obrazga kirish, emotsional ifoda, jamoaviy ishlash va ijodiy tasavvurni faollashtirishga erishiladi.

Muammoli savollar — ertakdagi voqealarni tanqidiy tahlil qilish orqali bolada mustaqil fikr yuritish, mantiqiy tahlil qilish, turli yechimlarni taklif etish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

Obrazli tahlil — ertakdagi qahramonlar xatti-harakatlarini muhokama

qilish orqali bola axloqiy me'yorlarni anglaydi, shaxsiy qarashlarini shakllantiradi, empatiya tuyg'usini rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar — bola ertak qahramonining rolga kirgan holda voqeani boshqacha yo'nalishda davom ettirishga harakat qiladi, bu esa uning ijodiy tafakkurini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu tamoyillar bolalarda ijodkorlik, tasavvur, emotsional anglash, nutqiy rivojlanish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Integrativ yondashuv bugungi ta'lim metodologiyasida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali ertaklar boshqa mashg'ulotlar bilan uyg'unlashgan holda o'qitiladi, bu esa ta'limning samaradorligini oshiradi. Masalan: Badiiy adabiyot mashg'uloti orqali ertak matni tahlil qilinadi, obrazlar tahlili, syujet tuzilmasi, kompozitsion yechim o'rganiladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida ertakdagi obrazlar tasvirlanadi, bu orqali bolaning tasviriy ifoda va estetik didi rivojlanadi.

Musiqqa mashg'ulotlarida ertaklarga mos qo'shiqlar, kuylar orqali bolaning emotsional qabul qilish qobiliyati kuchayadi.

Drama va teatr darslari orqali esa bolalar sahnalashtirish orqali jamoaviy ish, muloqot va ijodiy ijro ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

Bu yondashuvlar orqali bola ertakni nafaqat o'qiydi yoki eshitadi, balki uni turli badiiy va ilmiy nuqtayi nazardan anglaydi, bu esa ijodiy tafakkurning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda qoraqalpoq xalq ertaklari — bu maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda beqiyos vosita bo'lib, ularning estetik didini shakllantirish, mustaqil fikrlash, muammoni ijodiy hal qilish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ertaklarni ta'lim jarayonida integrativ va interfaol metodlar asosida qo'llash orqali zamonaviy bolalar shaxsining har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin. Shu bois, ertaklarning pedagogik qiymatini chuqur o'rganish va uni

amaliyotga joriy etish bugungi ta'lim-tarbiya sohasining dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. "Qaraqalpaq folklori" 99-tom, Nukis "Ilim" 2015-yil.
2. V.J. Seitmuratova "Qaraqalpaq xalq ertekleri orqali balalardín dóretiwshilik oylawın rawajlandırıw" «ZAMANAGÓY MEKTEPKE SHEKEMGI TÁLIM: TÁJRIYBE, MASHQALALAR, RAWAJLANIW KELESHEGI» atamasındaǵı xalıqaralıq ilimiy-ámeliy konferenciya MATERIYALLARÍ. 17-aprel 2024.
3. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b. 119b., 41.38 (A.A.Leont'ev)
4. Babayeva D.R. «Tevarak atrofni o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish» Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertaciya. Tosh-2001. 75-b.
5. Davlatova A.A. Bolalar nutqi: psixolingvistik omil, kognitiv bilim, lingvokulturologik aspekt sifatida. "YANGI O'ZBEKISTONDA O'ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR, TAVSIYALAR" MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2024-YIL 21-OKTABR 215-b.
6. F.R Qodirova, R.M Qodirova. —Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.,—Istiqlol, 2006.
7. ILM YO'LI. 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash uchun rivojlantiruvchi, ta'limiy-tarbiyaviy variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022.